

**PROFILAKTIKA INSPEKTORINING AHOLI O'RTASIDA HUQUQIY
TARG'IBOT FAOLIYATI TUSHUNCHASI VA AHAMIYATI**

Raximjonova Ruxshona Odiljon qizi
Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati
316-guruh

Annotatsiya: *Profilaktika inspektorining aholi o'rtasida huquqiy targ'ibot ishlarini olib borishi jamoat tartibini saqlash, qonunga itoatkor jamiyatni qaror toptirish va jamiyat miqyosida jinoyatchilikni yengillashtirishning muhim tarkibiy qismidir. Bu rol aholining huquqiy masalalar bo'yicha xabardorligini oshirish, ta'lim kampaniyalarida qatnashish va huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikni rag'batlantirish uchun aholi bilan ishonchni o'rnatishni o'z ichiga oladi. Profilaktika inspektorlari fuqarolarning huquqlari, qonuniy majburiyatlari va qonunbuzarlik oqibatlarini to'g'risidagi bilimlarni tarqatish orqali shaxslarga jamiyatda xavfsiz muhitni yaratishga hissa qo'shish imkoniyatini beradi. Ularning tushuntirish ishlari nafaqat ehtimoliy huquqbuzarliklarning oldini oladi, balki jamiyat va huquqni muhofaza qiluvchi idoralar o'rtasida konstruktiv muloqotni yo'lga qo'yadi, shu orqali jamiyatda xavfsizlik, rioya qilish va jamoaviy mas'uliyat madaniyatini shakllantiradi.*

Kalit so'zlar: *Inspektor, Huquqiy targ'ibot, Aholining xabardorligi, Jamiyat xavfsizligi, Jinoyatning oldini olish, Huquqni muhofaza qilish, Ta'lim, Ishonchni shakllantirish, Fuqarolar hamkorligi.*

Huquqbuzarliklar profilaktikasining har bir turi o'zining maqsadi, vazifasi, o'ziga xos xususiyatlari va afzalliklaridan kelib chiqib ishlab chiqilgan profilaktika chora-tadbirlari tizimiga ega. Mazkur chora-tadbirlar tizimi qanchalik puxta o'ylangan va ishlab chiqilgani huquqbuzarliklar profilaktikasi turlarining samaradorligini kafolatlaydi. Chunki "chora" tushunchasining etimologik mazmuni ham fikrimizni tasdiqlaydi.

O'zbek tilining izohli lug'atiga murojaat qilinganda, "chora" tushunchasiga - "biror ishni, maqsadni amalga oshirish, ro'yobga chiqarish yoki uning oldini olish uchun puxta o'ylab tuzilgan, ishlab chiqilgan tadbirlar majmui" deb, "tadbir" so'ziga esa, "maqsadni amalga oshirish yo'lidagi ish, xatti-harakatning o'zi", "ma'lum maqsadda tashkiliy ravishda amalga oshiriladigan (bajariladigan) ish yoki ishlar" kabi ma'nolar bo'yicha izohlar berilgan. Ko'rinib turibdiki, "chora" va "tadbir" so'zlarining lug'aviy ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi. Shu boisdan, aksariyat hollarda ular "chora-tadbir" deb, bir butun tushuncha tarzida qo'llanadi.

Shu o'rinda, "tar'ibot", "tashviqot", "huquqiy tar'ibot", "qonunchilik tar'iboti" tushunchalariga oydinlik kiritib o'tish maqsadga muvofiqdir. "Tar'ibot" so'zining o'zagi "tar'ib" bo'lib, o'zbek tilining izohli lug'atida "tar'ib" xohishni, qiziqishni kuchaytirish, shuningdek, tar'ib qilmoq - chuqur tushuntirish yo'li bilan biror g'oya, ta'limot va shu kabilarni yoymoq, kishilar ongiga singdirmoq, shuningdek, tushuntirish yo'li bilan biror

ishga chaqirmoq, da'vat etmoq ma'nolarini anglatga, "tar'ibot" esa biror g'oya, ta'limot va shu kabilarni yoyishga, kishilar ongiga singdirishga qaratilgan ishlar, tar'ib ishlari ma'nosini anglatadi. Mazkur izohli lug'atda "tashviq" so'ziga "qiziqish, xohishni kuchaytirish. Biror narsaga yo'llash, yo'naltirish, chaqirish maqsadidagi gap-so'z, xatti-harakat va shu kabilarni" deb, "tashviqot"ga esa "ommaga siyosiy yoki boshqa jihatdan ta'sir ko'rsatish maqsadida yozma va og'zaki ravishda qilinadigan ishlar, tadbirlar" tarzida izoh berilgan. Ko'rinib turibdiki, "tar'ib" va "tashviq" tushunchalari muayyan jarayon va undan ko'zlangan maqsadni o'zida ifodalasa, "tar'ibot" va "tashviqot" esa jarayonlar yig'indisi, boshqacha aytganda, kompleks tadbirlar majmuasidan iborat ekanligi namoyon bo'ladi. E'tiborli tomoni shundaki, mazkur tushunchalar mazmun jihatdan bir-biriga juda yaqin bo'lib, boshqalarda qiziqish, xohishni kuchaytirish orqali ular ongiga tushuncha, g'oya yoki ta'limotni singdirishga qaratilgandir. Bu tushunchalarning biri ikkinchisini to'ldiradi va aynan shuning uchun ham ijtimoiy hayotda "tar'ibot-tashviqot" bir-biriga juda ham yaqin tushunchalar tarzida qo'llanib kelinadi.

"Huquqiy tar'ibot" umumiy tar'ibotning bir yo'nalishi bo'lib, unda asosan aholining huquq va majburiyatlari, qonuniy manfaatlari bilan bog'liq masalalarning mazmun va mohiyatini aholiga yetkazish, shu asosda fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish maqsad qilib qo'yiladi. So'nggi paytlarda, huquqiy adabiyotlarda "huquqiy tar'ibot" bilan birga "qonunchilik tar'iboti" tushunchasi ham qo'llanilmoqda.

"Huquqiy tar'ibot" tushunchasi "qonunchilik tar'iboti"ga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, keng qamrovli ijtimoiy-huquqiy munosabatlar doirasidagi masalalarni tar'ib qilishni nazarda tutadi. Misol uchun, muayyan turdagi huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar, ularni sodir etishning usul, shakl va vositalari, viktinlik holatlari, huquqbuzarliklardan himoyalani sh chora-tadbirlari kabi masalalarga urg'u berilsa, "qonunchilik tar'iboti" esa faqat qabul qilingan qonunlar va qonunosti hujjatlarining mazmuni va mohiyatini yoritishga qaratiladi. Eng e'tiborli tomoni, shundaki huquqiy tar'ibot kerak bo'lsa qonunchilik tar'ibotini ham o'z ichiga qamrab oladi. Ma'lumki, aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Huquqiy tar'ibot shaxsning huquqiy ongi va madaniyati darajasini yuksaltirish borasida aniq maqsadga yo'naltirilgan tizimli faoliyat jarayoni hisoblanganligi bois, uning asosini tashkil etuvchi tar'ib jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuridik adabiyotlarda huquqiy tar'ibotni ikki xil ma'noda, ya'ni keng va tor ma'noda talqin qiluvchi yondashuvlar ham mavjud. Keng ma'noda huquqiy tar'ibot – turli omillar ta'siri ostida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishga qaratilgan keng miqyosli jarayondir. Tor ma'noda esa – huquqiy tar'ibot inson ongiga ta'sir ko'rsatishning bir shakli bo'lib, u orqali shaxs dunyoqarashida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish maqsad sifatida belgilangan bo'ladi. Bu fikrni A.V. Malko ham qo'llab-quvvatlaydi. Uning ta'kidlashicha, tor ma'nodagi huquqiy tar'ibot huquq tar'ibotga oid funksiyaning amalga oshishi bilan bog'liqdir. Keng ma'nodagi (pedagogik-huquqiy ma'noda) huquqiy tar'ibot deganda huquqiy vositalar bilan maxsus o'quv-tar'iboti shakllarda va muassasalarda maxsus

sub'ektlar tomonidan amalga oshiriladigan tashkiliy va boshqariladigan jarayonni tushunish lozim.

Qonunchilik va huquqiy tar'ibot ishlarini yanada kuchaytirish hamda ushbu yo'nalishda xizmat olib borayotgan xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish maqsadida "Ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida "Eng faol qonunchilik tar'ibotchisi" tanlovini o'tkazish to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida"gi sohaviy buyruq qabul qilinib, ijro etish uchun hududiy ichki ishlar organlariga yuborildi. Qonunchilik tar'iboti haqida so'z yuritilganda bir masalaga alohida e'tibor qaratish talab etiladi, ya'ni qonunchilik tar'iboti deganda, yangi qabul qilingan qonunni yoki boshqa normativ-huquqiy hujjatni faqat ma'lumot tarzida yetkazilishini tushunmaslik kerak, balki uning mazmun-mohiyatini ichki ishlar organlari xodimlariga, aholiga to'la-to'kis tushuntirib berish nazarda tutiladi. Ushbu ishning samarali bo'lishida qonun tar'ibotchisining shaxsi, ya'ni uning nazariy-huquqiy bilimi, fikrlash doirasi, xulq-atvori, amaliy tajribasi, hozirjavobligi, kerak bo'lsa notiqlik san'ati, jamoada, oilada, mahallada tut

Profilaktika inspektorining aholiga huquqiy targ'ibot faoliyati jamoa hayotida muhim o'rin tutadi. Bu faoliyat fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirishga, qonunlarga bo'lgan hurmatni shakllantirishga, shuningdek, huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlardan iboratdir. Aholi orasida profilaktika inspektorlari tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy targ'ibot turli shakllarda olib boriladi: seminarlar, suhbatlar, o'quv mashg'ulotlari, ommaviy axborot vositalari orqali chiqishlar va boshqalar.

Bu jarayonda inspektorning bilim saviyasi, nutq madaniyati, ishonchli va aniq ma'lumotlarni yetkazish qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Yuqori samarali huquqiy targ'ibot faoliyati aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga hissa qo'shadi va fuqarolarni o'z huquq va majburiyatlariga nisbatan mas'uliyatliroq bo'lishga undaydi. Shu bilan birga, targ'ibotning mazmun-mohiyatini aniq tushuntirish va misollar bilan isbotlash orqali fuqarolar ongida huquqiy bilimlarni singdirish va ularni huquqbuzarliklardan uzoq tutish imkoniyatlari kengayadi.

Xulosa qilib aytganda, profilaktika inspektorining huquqiy targ'ibot faoliyati nafaqat jamiyatning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi, balki huquqbuzarliklarning oldini olishda, jamoatchilikning huquqiy bilim va malakasini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tariqa, inspektorning faoliyati orqali fuqarolar o'zlarini huquqiy jihatdan himoya qila olishga o'rganadilar va qonuniy qadriyatlarni hurmat qilishga yanada intilishadi.